

# ФУНДАМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

**KOBILOV Uchkun Ulmasovich**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
davlat boshqaruvi akademiyasi  
doktoranti*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13853558>

## MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MILLAT TARAQQIYOTINING POYDEVORI

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamda Milliy o'zlikni anglash Millat taraqqiyotida uning tutgan o'rni va maqsad vazifalari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy meroslarining o'zlikni anglashdagi mohiyati va yosh avlod tarbiyasida vatanga muxabbatini shakillantirish asosiy omill bo'lib qaralishi haqida muloxaza qilibgina qolmay, Milliy o'zlikni anglash Millat taraqqiyotida uning tutgan o'rni va maqsad vazifalari, ajdodlarimizning bizga qoldirgan madaniy va ma'naviy meroslarining kelajak avlod va biz yoshlar uchun, qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida alohida to'xtalib o'tamiz. Milliy o'zlikni anglash millat taraqqiyotining poydevori... Qachon biz milliy o'zligimizni anglasak, kelajagimiz ham, kelajak yoshlarimiz ham, vatanga muxabbati shakillanadi. Vatanga muxabbat shakllandi degani, kelajagimiz porloq degani.

**Kalit so'zlar:** o'zlikni anglash, Milliy o'zlikni anglash, ajdodlar merosi, millat taraqqiyoti, tarixiy xotira, yoshlar ongida milliylikni shakillantirish, milliy ong, milliy g'urur, milliy his, milliy iftixor, milliy xarakter.

## ПОНИМАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ – ОСНОВА НАЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ

### АННОТАЦИЯ

В этой статье я не только размышляю о роли и целевых задачах национального самосознания в развитии нации, о сущности культурного и духовного наследия, оставленного нам нашими предками в самосознании, и о том, что формирование любви к Родине в воспитании подрастающего поколения является ключевым фактором, но и размышляю о роли и целевых задачах, которые наши предки оставили нам в развитии нации. и будущее духовного наследия отдельно остановимся на поколении и на том, как оно важно для нас, молодежи. Национальное самосознание фундамент развития нации работа когда мы осознаем свое национальное самосознание, формируется наше будущее, наша будущая молодежь, наша любовь к Родине. Любовь к Родине сформировалась, значит, наше будущее светлое.

**Ключевые слова:** осознание идентичности, Национальная идентичность, наследие предков, национальное развитие, историческая память, формирование национальной идентичности в сознании молодежи, национальное сознание, национальная гордость, национальное чувство, национальная гордость, национальный характер.

## UNDERSTANDING NATIONAL IDENTITY IS THE BASIS OF NATIONAL DEVELOPMENT

### ANNOTATION

In this article, we will not only dwell on the role and purpose of national identity in the development of the nation, on the essence of the cultural and spiritual heritage of our ancestors left to us in self-realization and on the fact that in the upbringing of the younger generation, the identification of national identity is considered the main factor, but also on The realization of the national self is the foundation of the development of the nation... when we realize our national self, our future and future youth, as well as our love for the motherland, are formed. Love for the motherland has formed, which means that our future is bright.

**Keywords:** awareness of identity, National identity, ancestral heritage, national development, historical memory, the formation of national identity in the minds of young people, national consciousness, national pride, national feeling, national pride, national character.

### *Kirish*

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti o'z-o'zini anglash, eng avvalo, insoniy mavjudlikning mohiyatini ma'naviy voqelik, sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tibor, ornomus orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Hayotning ma'no-mazmunini, maqsadini tushinib etish, o'zlikni, anglashdan boshlanadi. Milliy g'oyada uning negizlari mujassam bo'lganligi uchun ham o'zlikni anglashga xizmat qiladi va bir-biri bilan uzviy bog'liq. Shundagina inson o'z mamlakatning tom ma'nodagi munosib fuqarosi bo'la oladi.

O'zlikni anglash - Milliy o'zlikni anglash va nihoyat - Umumbashariy o'zlikni anglash tushunchalari bir-biridan ayri emas, balki bir-biri bilan uzviy aloqador, birbirini taqozo etadi. Zero, inson ota-ona, oila, millat, ahli bashar, boringki butun borliq bilan munosabatlar asosida o'zining kim ekanligini anglab boradi. Ayni shu munosabatlar zaminida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida milliy g'oya tamoyillari shakllangan va o'z navbatida, milliy g'oya ularni zamon talablari asosida boyitib beradi.

O'z-o'zini anglash bu o'z Vatani va shu Vatanda yashagan xalqning, millatning o'tmishi, uning madaniyati, urf-odati, hamda qadriyatlarini bilishi demakdir. O'z-o'zini anglash bu o'z xalqining azaldan jahon hamjamiyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasini anglashdir. O'z-o'zini anglash bu-o'tgan ajdodlar tarixini mukammal bilish, ularning ruhlari hurmatini o'rniga qo'yish demakdir. Shu bilan birga o'z-o'zini anglash Vatan hududidagi boy madaniy va moddiy merosni aniqlab, porloq kelajak uchun xizmat qilishga intilish, avlodlar farovonligi uchun o'z hissasini qo'shish hamdir.

Milliy o'zlikni anglash - millatning o'zini chuqurroq anglash imkoniyatlariga ega bo'lish, tarixi, madaniyati, an'analari, qadriyatlarini tiklashga, rivojlantirishga xarakat qilishdir.

1. Milliy birlikni va boshqa etnoslarning mavjudligini tushunib etish;
2. Milliy qadriyatlar: til, tug'ilib o'sgan joy, madaniyatga (keng ma'noda) sodiqlik;
3. Milliy manfaatlarni tushunish;
4. Milliy mustaqillik va milliy taraqqiyotga intilish;
5. Vatanparvarlik kabi fazilatlarni sharllantirishdir.

Milliy o'zlikni anglash barcha davrlarda ham jamiyat tarixining asosiy omillaridan biri bo'lib kelgan va u millat manfaatlari va qadr-qimmatini anglashdan, ularni himoya qilish uchun kurashdan boshlanadi [1, 2].

### *Muhokama*

Milliy o'z-o'zlikni anglash natijasida o'z mamlakati taraqqiyotini belgilash, uning mustaqilligi uchun kurashning namunasini beradi. O'zo'zini anglash kelajakda o'z taqdirini o'zi belgilash uchun foydalaniladi, mas'uliyatni oshiradi. Ajdodlar fidoiyligi, jonkuyarligidan xulosalar qilinadi. Insonning komillik darajasi uning jamiyatdagi o'z o'rnini qanchalik bilgani, o'zini jamiyatning ajralmas qismi ekanligini qanchalik his etishi bilan belgilanadi.

Shundagina inson o'zining qadr-qimmatini xalqning, millatning qadr-qimmatini bilan nechog'lik bog'liq ekanligini, jamiyatda, yurtida sodir bo'layotgan voqeyalarga daxldorligini anglaydi.

Yurtimiz mustamlakachilik asoratiga tushgan XX asr boshlarida yurt qaygusida yongan Fitrat o'lkani boshiga yogilgan balolarda, avvalo o'zini aybdor deb hisoblagani bejiz emas. Amir Temur ruhiga murojaat etib, u shunday yozgan edi: "Yuqorida aytgan ishlarning hammasiga o'zim sabab bo'ldim, barchasini o'zim qildim.

Sening Turonini o'zim talatdim, Sening turkligingni o'zim ezdirdim, Sening omonatlaringga xiyonat o'zim qildim". Shu emasmi komillikning belgisi? Milliy o'zligini anglagan insongina, Fitrat kabi: "Turonim, sendan ayrilmoq - mening uchun o'limim, Sening uchun o'lmos mening tirikligimdir", - deya baralla ayta oladi, Najmiddin Kubro singari jonini saqlashni emas, yov bosgan yurtini himoya qilib, jon taslim berishni afzal ko'radi. Milliy o'zlikni anglash deganda o'z mamlakatining qadriyatlarini, madaniyati va tarixini tushunish va qadrlash tushuniladi. Ushbu holatga bugungi kun nuqtai nazaridan qaralsa, demak, davlat xizmatchilari o'z milliy o'ziga xosligini anglaganlarida, o'z kasbiy rollarida o'z mamlakatining qadriyatlarini va tamoyillarini ko'proq qo'llab-quvvatlaydilar.

Kasbiy barkamollikka rioya qilish davlat xizmatchilarining o'z xizmat vazifalarini yuksak mahorat, halollik va samaradorlik bilan bajarishga fidoyiligini bildiradi. Milliy o'zlikni anglash va kasbiy yuksaklikka intilish bilan uyg'unlashtirgan holda, davlat xizmatchilari o'z vatanlari va fuqarolariga yaxshiroq xizmat qilishlari mumkinligini namoyon etadi [3, 4].

Davlat xizmatchilari o'z faoliyatida o'z millatining qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirib borishi, o'z kasbiy vazifalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishi va mukammallikka intilishi zarur. Bu nafaqat davlatning obro'-e'tiborini oshirish, balki mamlakatning har tomonlama ravnaq topishiga ham xizmat qiladi.

Davlat xizmatchilari o'rtasida milliy o'zlikni anglashni targ'ib qilish va kasbiy kamolotga rioya qilishni rag'batlantirish xalq va uning manfaatlariga xizmat qiladigan davlat xizmatini yanada samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

#### *Munozara*

Xozirgi kunda Milliy o'zlikni anglash real ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy asoslarda shaxs ongida qaror topadi va u iroda bilan bog'lanib, amaliy harakat tusiga kiradi. CHunonchi, milliy o'zligini anglagan shaxslar hozirgi tarixiy sharoitda mamlakat xayotining barcha sohalaridagi salohiyatini ko'tarish zaruriyatini anglab, etadi.

Yoshlar qalbi va ongiga milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini chuqur singdirish, milliy g'ururni tarbiyalash masalasi eng dolzarb vazifadir. Ushbu vazifa bilan uzviy bog'liq bo'lgan muammo - yoshlarda faol grajdanlik pozitsiyasini shakllantirish, hayotga ongli munosabat, doimo ogoh va hushyor bo'lib yashash tuyg'usini oshirishdir. Boshqacha aytganda, biz o'z xaq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz lozimdir.

Yurtimizda hozirgi kunda yoshlar ongida milliy o'zlikni anglashni shakllantirish uchun avvalo yoshlar o'zida besh mezon talablarini shakllantirmog'i lozim, bular:

1. Milliy ong - shunday g'oyalar, fikrlar tizimiki, u har bir millatning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan manfaatlar, maqsadlarni ifodalash bilan birga, millat vakillari faoliyatini maqsad, yo'nalishlar tomon boshqarib turadi.

2. Milliy g'urur - shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'sha, millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

3. Milliy iftixor - millat ma'naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarini o'z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy yutuqlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan faxrlanish hissi - milliy his shunchalik kuchayib boraveradi.

4. Milliy his - bu millat manfaati bilan yashash, o'zi kimligini tanimoq. O'zligini tanimagan insonda milliy iftixor so'nadi. Milliylik, millatga mansublik bu umumjahon taraqqiyotining qonuniyatidir, milliy g'urursiz hech bir millat millat sifatida shakllanmaydi.

5. Milliy harakter - o'zbek xarakteri, milliy ruhiyati, milliy o'ziga xos tomonlari asrlar davomida shakllangan hamda asta-sekin ularning qoniga va joniga joylashib ketgan.

Ushbu mezonlarga xaqiqiy milliy o'zlikni anglashning poydori bo'lsa bu mezonlarda shakllangan yoshlar jamiyat taraqqiyoti uchun yetarlicha hissa qo'sha oladi bunday jamiyat davlatning mustaxkam poydevori bo'ladi [5].

#### *Xulosa*

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida ta'kidlangan fikrlar bizning harbiy ta'lim-tarbiya jarayonida bo'lajak ofiserlarda mustaqil fikrlash va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy va hayotiy kuzatuvlarimiz asosida shakllangan qarashlardir. Ammo, nazarimizda bu kabi fundamental masalalar harbiy ta'lim tizimida bo'lajak ofiserlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda va ijodkor shaxsni tarbiyalashda o'ziga xos o'rin tutadi.

Bularning barchasi oldimizda paydo bo'layotgan tahdid va xatarlarga munosib zarba berishga doimo tayyor bo'lishni talab etadi, - deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Oliy bosh Qo'mondoni Sh.M.Mirziyoyev o'zining "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir" nomli ma'ruzasida. Darhaqiqat, bugungi tahlikali davrda xarbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish, axloqiy-ruhiy, ma'nan yetuk, vatanparvar harbiy xizmatchi bo'lib yetishishlarida mustaqil ta'limning rolini oshirish bilan bir qatorda davlat xizmatchilarida ham vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, uning ertasi, kelajagi uchun fidoyilikni xis qilish zarurdir. Qolaversa, maqsad har bir fuqaroda, harbiy xizmatchi yoki davlat xodimida "men Vatan uchun nima qildim" degan tushunchani shakllantirishga erishishdir.

**REFERENCES. IQTIBOSLAR. СНОСКИ.**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B.508. 19 20
2. Matyushkin A.M. Nekotoryye problemy psixologii myshleniya. «Psixologiya myshleniya». / Sbornik perevodov s angliyskogo i nemeskogo pod red. A.M.Matyushkina. - M.: «Prosvetsheniye», 1965.
3. Muhammadjonov A. Shkola i pedagogicheskaya mysl uzbekskogo naroda XIX – nachala XX v. – T.: «Fan», 1978. -S. 44.
4. Raxmanova N.R., Umarov B.M. Psixologicheskiye osnovy uchebno-poznavatelnoy deyatel'nosti vuza. T.: IPTD imeni G.Gulyama, 2008. S. 67.
5. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. / Akademik liseylar va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: «Sharq», 2000. –112-b.